

Axborot-resurs markazlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va uning zaruriyati

Iqboloy Atanazarovna Raxmanova
Urganch davlat universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada yosh talaba yoshlarning ma'naviy va ma'rifiy tafakkuri rivojlantirish uchun axborot resurs markazlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari va ilmiy asoslari batafsil yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: axborot resur markazi, ma'naviy-ma'rifiy tushunchalar, ta'lim tizimi, talaba, ta'lim-tarbiya jarayoni.

Organization of spiritual and educational work in information resource centers and its need

Iqboloy Atanazarovna Rakhmanova
Urgench State University

Abstract: This article describes in detail the pedagogical conditions and scientific basis for the organization of spiritual and educational work in the information resource centers for the development of spiritual and enlightenment thinking of young students.

Keywords: information resource center, spiritual-enlightenment concepts, education system, student, educational process.

Hozirgi davrda mamlakatimizda 18 yoshgacha bo'lgan yoshlar umumiy aholining taxmiman 40% ni, 30 yoshgacha bo'lganlar esa 37% ni tashkil etadi. Shu sababli yoshlarning tarbiyasiga, kamolotga etishiga huquqlarini himoya qilishga e'tiborni qaratish davlat siyosatining ustivoryo'nlislaridan biri hisoblanadi. O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek "Biz farzandlarimizning barkamol ruhiy dunyosi uchun, ularning ma'naviy-ahloqiy jihatdan etuk, jismonan sog'lom bo'lishi uchun doimo qayg'urishimiz, kurashmog'imiz, zarurat" chunki yoshlar o'rtasida mumtoz qo'shiqlarni tushunmaydigan, jahon adabiyoti durdonalari u yoqda tursin, o'zbek adabiyotining nomdor asarlarini hm bilmaydigan, arzimagan choy-chaqaga o'z xalqini, dinini sotadigan, Vataniga qarshi qo'l kutaradigan yoshlar ham borligini unutmashimiz lozim.

Yoshlarni tarbiyalash, mamlakat kelajagini ta'minlash bu davlat buyurtmasidir. Shu sababli ma'naviy-ma'rifiy ishlar va uni tashkil etish ma'naviy tarbiyaning yoshlarga ta'siri, yoshlarning jamiyat hayotidagi roli uzluksiz ta'limni insonparvarlashtirishda ma'naviy-ma'rifiy ishlarning, ahamiyati, ma'naviyat, ma'rifat, mafkura tushunchalarining o'zaro bog'liqligi, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va o'rganishdan iboratdir.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va uni tashkil etish ilmiy-nazariy, tarixiy-falsafiy asoslarini qadimgi davr faylasuflari va allomalari asoslari, xalq o'zaki ijodiyotining ajoyib durdonalari, Sharq va G'arbning o'rta asrlarda ijod qilgan buyuk allomalarining fikrlari, yangi va eng yangi davrda yaratilgan ilm-fanning noyob durdonalari, O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov asarlarida yoritilgan Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va tarbiyaga oid fikrlari tashkil etadi.

Shuningdek, bugun jamiyatimizda kitobxonlikni rivojlantirish, ayniqsa, yoshlar o'rtasida mutolaa madaniyatini rivojlantirishga davlat tomonidan alohida e'tibor berilib, ko'plab samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 12 yanvardagi "kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi farmoyishi, 2017 yil 13 sentyabrdagi "kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi va

2018 yil 12 maydagi "Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o'rganish va targ'ib qilish maqsadida yoshlar o'rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to'g'risida"gi qarorlari asosida mamlakatimizda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan bir qator tashkiliy-amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilishi jamiyatda kitobga bo'lgan munosabatning ijobiy tomonga o'zgarishiga zamin yaratdi.

Shuni ham aytishimiz lozimki ma'naviyat-ma'rifatni rivojlantirish uchun O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining qarori 2020-yil 14-dekabrda 781-son qarorida "2020 - 2025-YILLARDA KITOBXONLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH VA QO'LLAB-QUVVATLASH MILLIY DASTURINI TASDIQLASH TO'G'RISIDA" va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi PF-5953-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2017 - 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarorlari buning ayni isbotidir.

O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch" asarida kitobxonning e'tibori takror-takror eng dolzarb masalaga,

ya'ni yosh avlod tarbiyasiga, o'g'il qizlarimizning sof va beg'ubor qalbini turli ma'naviy taxdidlardan qanday asrash masalalariga qaratiladi. Shu sababli kitobda eng ko'p ishlatilgan tushunchalarni "yoshlar", "tarbiya", "ma'naviyat", "milliy g'oya", "fazilat", "taxdid" so'z va iboralar tashkil etadi.

Hozirgi globallashuv sharoitida ma'naviy tahdidlar, rivojlanayotgan mintaqalarning boyliklarini egallashga intilish birdaniga paydo bo'lgani yo'q. Ma'naviyatli insoniyat o'tmishdan tegishli saboqlar chiqarishi va XXI asrda tarix varaqlariga xijolatlik bilan bitiladigan voqea-hodisalarning sodir bo'lishiga yo'l qo'ymasligi kerak edi. Qashshoqlik, ekologik muammolar, zaxiralar taqchilligi, ommaviy kasalliklar, diniy aqidaparastlik va terrorizm XX asrdan XXI asrga meros bo'lib o'tdi. Ustiga-ustak, ayrim kuchlarning urinishlari natijasi o'laroq, xavf-xatarlar ro'yxati yangilari hisobiga yanada kengaydi. Demografik inqiroz, demokratiya eksporti, ma'naviy qashshoqlashuv, axborot urushlari, g'arbona turmush tarzini tiqishtirish kabi xavf-xatarlar shundoq ham bezovta dunyoning tashvishlarini ko'paytirdi. Odamzodning mavjud illatlarga qarshi kurashi qaysidir jihatdan afsonalarda tasvirlanadigan ko'p boshli ajdar bilan olishuvni eslatadi. Ajdarning bitta boshi tanasidan judo qilinishi zahoti, shu joydan ikki-uchta bosh o'sib chiqishi bu mahluq bilan kurashish naqadar mashaqqatli ekanini ko'rsatadi.

Xavf-xatarlarga jiddiy razm soladigan bo'lsak, mustamlakachilik siyosati, birovlarini qaram qilish siyosati yangi asrda yo'qolmaganini, balki o'zining shakli shamoyilini o'zgartirganini tushunib etamiz¹. Darhaqiqat, «Millat bor ekan, milliy davlat bor ekan, uning mustaqilligi va erkinligiga, an'ana va urf-odatlariga tahdid soladigan, uni o'z ta'siriga olish, uning ustidan hukmronlik qilish, uning boyliklaridan o'z manfaati yo'lida foydalanishga qaratilgan intilish va harakatlar doimiy xavf sifatida saqlanib qolishi muqarrar»¹

Mustaqillik davlat miqyosida oliy hokimiyatga egalikni, tashqi va ichki siyosatni olib borishdagi to'la erkinlikni anglatadi. Mustaqillik muayyan davlat erkinlikning birlamchi sharti va belgisidir. Bu esa mustaqillikning tom ma'noda qisman yoki cheklangan shaklda mavjud bo'la olmasligini anglatadi. Chunki mustaqillik davlatning boshqa davlatlarga tobe bo'lmay, qaram bo'lmay yashashini, o'zga kuchlar tomonidan boshqarilmay, birovlarining irodasiga bo'ysunmay, erkin hayot kechirishini nazarda tutadi. Muhimi, davlat mustaqilligining o'rnatilishi mamlakatlar o'rtasida tenglik qaror topishini shartlab qo'yadi hamda mutelik, o'zgalar hisobiga yashash, turli kamsitishlar, ortiqcha ta'zim-tavozega yo'l qo'ymaydi. Davlat mustaqilligi mustamlakachilikning har qanday shaklini, uning kamsituvchi tabiatini, u taqozo etadigan zo'ravonliklarni inkor etadi.

Garchi butun dunyo mamlakatlari o'rtasidagi teng huquqlilik jahon hamjamiyati taraqqiyotining tabiiy va zaruriy sharti hisoblansa-da, ayrim mulohazalar va xatti-

¹ Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. – Тошкент, «Ўзбекистон», 2000, 3-бет

harakatlarda hamon imperiyacha fikrlash ta'sirini, davlatlar mustaqilligini emirish istagini ilg'ash qiyin emas.

Globalashuv jarayonlarini tahlil qilgan olimlar bu jarayonlarda davlatning rolini turlicha baholaydilar. Ayrim nazariyalarda globalashuv jarayonida davlatning roli tobora pasayib borishi uqtirilsa, boshqalarida uning o'rni va ahamiyati o'zgarmaydi, deb ta'kidlanadi. Yana bir guruh olimlar esa globalashuv sharoitida davlat bilan davlatlararo tashkilotlar o'rtasida siyosiy hokimiyat qayta taqsimlanib, davlat ularga o'z suverenitetining bir qismini beradi², degan farazlarni ilgari surmoqda.

O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan e'tirof etilganidek, «O'zbekistonni olib borayotgan mustaqil siyosatdan qaytarish, kimgadir qaram qilish maqsadida chetdan turib ichki ishlarimizga aralashish, turli niqblar ostida bizga qarshi tazyiq va zo'ravonlik o'tkazish siyosatini mutlaqo qabul qilmaymiz»³.

Davlatlar mustaqilligini kemiruvchi xavf-xatarlarga yuzaki qarash, ularni tahdid manbai sifatida e'tirof etmaslik insoniyat boshiga yana ko'plab kulfatlar solishi muqarrar. Shu bois, bugungi kunda suverenitetimizga tahdid solayotgan bunday hodisalarning mafkuraviy poydevorini hosil qiluvchi vayronkor g'oyalarni fosh etish birlamchi vazifaga aylanadi.

Axborot resurs markazlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarning maqsad va vazifalari:

Mustaqilligimizdan keyin ma'naviy-ma'rifiy ishlarga, unutilgan, kamsitilgan ma'naviyatimizni, milliy qadriyatlarimizni tiklashga qaratilgan siyosatni amalga oshirilishini ko'rsatish hamda yosh avlodning milliy g'ururini yuksaltirishga, ularni vatanparvarlik, yurtparvarlik, baynalminallik ruhida tarbiyalashga qaratilgan tadbirlar mohiyatini ochib berish, ularni tashkil etish metodikasini o'rgatish ushbu fanning maqsadini tashkil etadi.

“Axborot resurs markazlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish asosiy qo'yilgan vazifalar quyidagilardan iborat:

❖ Ma'naviy ma'rifiy tarbiyaning jamiyat taraqqiyotidagi rolini va uni yoshlar ongiga singdirishning ahamiyatini ochib berish;

❖ Uzlaksiz ta'lim tizimini insonparvarlashtirishning tarbiyaga ta'sirini, eski mafkuradan insonlarning halos bo'lishini tezlashtirish uchun barcha ishlarni tezlashtirish lozimligini ko'rsatish;

❖ Ma'naviy ma'rifiy islohatlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi ekanligini ochib berish;

² Удовик С.Л. Глобализация: семиотические подходы. – М., «Ваклер», 2002, с. 389.

³ Каримов И.А. Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари ҳамда манфаатлари – энг олий қадрият.//Халқ сўзи, 2005 йил 8 декабрь.

❖ “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ning qabul qilinishi bilan ma’naviy ma’rifiy ishlarning yanada takomillashuvini ko’rsatish va bu masalada amalga oshirilgan ishlarni umumlashtirish;

❖ Ma’naviy ma’rifiy ishlarni tashkil etishda ma’naviyat, ma’rifat, mafkura tushunchalarining o’zaro bog’liqligini, aloqadorligini, biri ikkinchisini inkor qilmasligini tarbiyaviy jarayonda ulardan umumlashgan holda foydalanish mumkinligini tushuntirish;

❖ Ma’naviy ma’rifiy ishlarning, jarayonlarning mohiyati va asosiy yo’nalishlarini tahlil etish;

Ma’naviy ma’rifiy va mafkuraviy targ’ibot ishlari hech qachon hozirgidek dolzarb vazifaga aylanmagan. Ma’naviy islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo’nalishi bo’lgani, mafkuraviy tahdid va axboriy xurujlar ko’payib borayotgani, odamlar ongi va qalbini egallash yo’lidagi kurash jarayonlari kuchaygani uchun hayotning barcha jabxalari, ishlab chiqarishning hamma sohalari, aholining hamma qatlamlari orasida ma’naviy ma’rifiy va mafkuraviy sohada jadal ishlarni amalga oshirish targ’ibotchi oldidagi eng muhim vazifa hisoblanadi.

Shuning uchun ham ma’naviy ma’rifiy va mafkuraviy targ’ibot ishlari qanday dastur va yo’nalish, qaysi ko’rsatma va qo’llanma, qanaqa reja asosida, qay saviyada, kimlar tarafidan olib borilayotgani g’oyat muhim masala bo’lib turibdi.

Taraqqiyot yo’limiz ham, ijtimoiy sohalarda amalga oshirilayotgan ko’pdan-ko’p ishlar ham, qabul qilinayotgan qonunlar, qarorlar, ko’rsatmalarning pirovard natijasi ham Inson manfaatlariga qaratilganligi jamiyatimiz xarakteri bilan bevosita bog’liq. Davlatimizning ijtimoiy yo’nalishdagi islohotlar yo’lidan qat’iy borayotganligi bevosita odamlar manfaatini ko’zlashning yorqin dalilidir. Bu izchil siyosatdir. Demak, har bir hatti-harakatimiz, mehnatimiz asosida inson manfaatlari, vatanparvar, yangi fidoyi avlodni tarbiyalash turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q. T. Sharq.1998 yil.
2. Karimov I.A.Konstitutsiya kuniga bag’ishlangan tantanali marosimdagi nutqi: 1999 yil., 8 dekabr.
3. Karimov. I.A. O’zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.: O’zbekiston, 1999/
4. Karimov. I.A. O’zbekiston buyuk kelajak sari T.: O’zbekiston. 1998 yil.
5. O’zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV Toshkent sh., 2020-yil 14-dekabr, 781-son.
6. Shakhlo Kharatova Khakimovna “USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS” Science and Education ISSUE 3, March 2022;

7. Ismailov Tohir “Credit - A Module System and Its Principles of Implementation (In Teaching Mathematics in Higher Education Institutions)” International Journal of Academic Management Science Research (IJAMSR) Vol. 6 Issue 4, April - 2022, Pages:8-15;